Registered in Germany Europa Revue Journal
ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 9 (2026) Published September 30, 2026

Integrated Project-Based Learning Technology in Preschool Education and Its Didactic Potential

Kerimberdieva Gawhar Darmenbaevna
2nd-Year Student, Preschool Education Program

Annotation

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of implementing integrated project-based learning technology in the educational process of preschool educational organizations and its didactic possibilities. Mechanisms for systematizing educational content around holistic projects that develop the child's personal needs, research intelligence, and social skills are considered, rather than providing children with knowledge in the form of traditional, separate, and ready-made forms of learning. The practical effectiveness and pedagogical dynamics of integrated projects in increasing children's cognitive activity, fostering logical-constructive thinking, and forming collaborative competencies are evaluated.

Keywords

integrated education, project-based learning, preschool education, didactic opportunities, educational technology, cognitive activity, problematic cases, preparatory group, independent research, learning motivation.

Maktabgacha ta’limda integrallashgan loyihaviy o‘qitish texnologiyasi va uning didaktik imkoniyatlari

Kerimberdieva Gawhar Darmenbaevna
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-kurs

Annotatsiya Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘quv-tarbiya jarayonida integrallashgan loyihaviy o‘qitish texnologiyasini tatbiq etishning nazariy-metodik asoslari va uning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bolalarga bilimlarni an’anaviy, bir-biridan ajralgan va tayyor qolipli mashg‘ulotlar shaklida berishdan ko‘ra ta’lim mazmunini bolaning shaxsiy ehtiyoji, tadqiqotchilik intellekti va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi yaxlit loyihalar atrofida tizimlashtirish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Bolalarning kognitiv faolligini oshirish, mantiqiy-konstruktiv tafakkurini uyg‘otish

hamda hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini shakllantirishda integrallashgan loyihalarning amaliy samaradorligi va pedagogik dinamikasi baholanadi.

Kalit so‘zlar: integrallashgan ta’lim, loyihaviy o‘qitish, maktabgacha ta’lim, didaktik imkoniyatlar, ta’lim texnologiyasi, kognitiv faollik, muammoli keyslar, tayyorlov guruhi, mustaqil tadqiqotchilik, o‘quv motivatsiyasi.

Аннотация В статье анализируются теоретико-методические основы внедрения интегрированной проектной технологии обучения в учебно-воспитательный процесс дошкольных образовательных организаций и ее дидактические возможности. Вместо того, чтобы давать детям знания в форме традиционных, разделенных друг от друга и готовых шаблонных занятий, рассматриваются механизмы систематизации содержания образования вокруг целостных проектов, развивающих личные потребности ребенка, исследовательский интеллект и социальные навыки. Оценивается практическая эффективность и педагогическая динамика интегрированных проектов в повышении когнитивной активности детей, пробуждении их логико-конструктивного мышления и формировании компетенций совместной работы.

Ключевые слова: интегрированное образование, проектное обучение, дошкольное образование, дидактические возможности, образовательные технологии, когнитивная активность, проблемные кейсы, подготовительная группа, самостоятельное исследование, учебная мотивация.

O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy ta’lim strategiyasida uzluksiz ta’lim tizimining poydevori hisoblangan maktabgacha ta’lim muassasalarining pedagogik mazmunini tubdan isloh qilish va uni xalqaro andozalar darajasiga ko‘tarish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, shuningdek, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan, maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish hamda maktab ta’limiga tizimli tayyorlashga qaratilgan “Ilm yo‘li” davlat dasturi tizim oldiga mutloq yangi pedagogik talablarni qo‘ymoqda. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarning bosh maqsadi – 5-7 yoshli bolalarga bilimlarni tayyor qoliplarda, mexanik yodlatish (reproduktiv ta’lim) andozasidan butunlay voz

kechib, ularda mustaqil fikrlash, ijodiy tashabbuskorlik hamda amaliy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini barvaqt shakllantirishdir. Bu maqsadga erishishning eng samarali va zamonaviy didaktika amaliyotida keng e’tirof etilgan ilg‘or instrumentlaridan biri, shubhasiz, ta’lim jarayoniga integrallashgan loyihaviy o‘qitish texnologiyasini tizimli joriy etish hisoblanadi.

Biroq MTTlarda ta’lim jarayoni hamon tarqoq va bir-biridan ajralgan statik mashg‘ulotlar (ona tili alohida, matematika alohida, rasm darsi alohida) formatida loyihalanmoqda. Natijada, bola darsda olgan nazariy ma’lumotlarini amaliy hayotiy jarayonlar bilan bog‘lay olmaydi. U atrof-muhit haqida gapira oladi, ammo o‘sha bilimlarga tayanib, jamoa bo‘lib biror muammoni mustaqil loyiha shaklida hal qilishga kelganda kognitiv ojizlikka uchraydi. Bilimlarning bunday tarqoqligi bolada amaliy va ijtimoiy intellektning ilk kurtaklarini bo‘g‘ib qo‘ymoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faolligini oshirish va ta’lim jarayonini muammoli-loyihaviy mexanizmlar asosida tashkil etish masalalari pedagogika fani va bolalar psixologiyasida uzoq yillardan buyon turli fundamental konsepsiyalar doirasida tadqiq etib kelinmoqda.

Respublikamizning taniqli metodist olimasi, professor R.A. Mavlonova maktabgacha ta’limda innovatsion integratsiyalashgan mashg‘ulotlarni loyihalashga bag‘ishlangan o‘quv qo‘llanmasida shunday fikrni ilgari suradi: “Maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlash va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish uchun darslarni integratsiyalashgan bloklar shaklida tuzish, tarqoq fan materiallarini bitta mavzu atrofida birlashtirish hamda tarbiyachining ko‘rgazmali-amaliy metodlaridan keng foydalanishi didaktik jihatdan yuqori samara beradi[1]”.

Biroq, R.A. Mavlonovavanining ushbu yondashuvini bugungi kun kompetensiyaviy ta’lim talablari va “Ilm yo‘li” dasturi mezonlari nuqtai nazaridan tanqidiy baholaydigan bo‘lsak, unda o‘ziga xos nazariy cheklanishlar ko‘zga tashlanadi. Muallif integratsiyani ko‘proq tarbiyachining nazorati ostida bo‘lgan “mavzuiy birlashma va ko‘rgazmali-amaliy metodlar” doirasida loyihalashtiradi. Ammo u bolaning o‘zi subyekt (faol ijrochi) sifatida ishtirok etadigan, muammoni mustaqil tahlil

[1] Mavlonova R.A. “Integratsiyalashgan ta’lim metodikasi”. Toshkent: “Ilm ziyo”, 2013. 48-sahifa

qilib, yakunda shaxsiy mahsulotini taqdim etadigan integrallashgan loyihaviy texnologiyaning qadam-baqadam algoritmlarini ko‘rsatmaydi. An’anaviy integratsiya dars davomida bolani axborot bilan ta’minlaydi, biroq loyihaviy o‘qitishga xos bo‘lgan jamoaviy rejalashtirish, rollarni taqsimlash va taqdimot qilish (prezentatsiya) kabi ijtimoiy-amaliy ko‘nikmalarni (didaktik imkoniyatlarni) to‘liq qamrab ololmaydi.

Loyihaviy ta’lim metodologiyasini jahon miqyosida poydevorli shakllantirgan amerikalik mashhur pedagog va faylasuf J. Dewey o‘zining amaliyot orqali o‘qitish konsepsiyasida quyidagi qonuniyatni ilgari suradi: “Ta’lim – bu bolani kelajak hayotga tayyorlash jarayoni emas, balki hayotning o‘zidir. Shuning uchun bolaga quruq va mavhum qoidalarni o‘rgatishdan butunlay voz kechib, butun o‘quv jarayonini bolaning shaxsiy ehtiyojidan kelib chiqadigan, uning o‘zi bevosita bajara oladigan amaliy mehnat va muammoli loyihalar (Learning by doing) asosiga qurish shart[2]”.

Biroq, J. Deweyning ushbu radikal loyihaviy konsepsiyasida ham maktabgacha ta’lim tashkilotlarining amaliy muhiti uchun jiddiy uslubiy ziddiyat ko‘zga tashlanadi. Muallif ta’limni faqatgina bolaning subyektiv “qiziqishi va amaliy loyihalari” doirasida qurishni talab qiladi-yu, ammo bu jarayonda tizimli davlat ta’lim standartlari (kurikulum) bilan loyihaviy faoliyatni qanday muvozanatlashtirish mexanizmini ko‘rsatmaydi. Agar bog‘chada darslar faqatgina bolaning xohishiga ko‘ra erkin loyihalashtirilsa, ta’lim tizimsiz bo‘lib qolishi va bola maktabga chiqishidan avantajli bo‘lgan bazaviy savodxonlik (savod o‘rgatish, elementar matematika) ko‘nikmalaridan mosuvo bo‘lishi xavfi tug‘iladi. Dewey modelida maktabgacha yoshdagi bolaning (5–7 yosh) yosh xususiyatlariga mos keluvchi, kurikulum bilan sinxronlashtirilgan integrallashgan loyihaviy didaktika chizmasi ochiq qoldirilgan.

Taniqli psixolog V.V. Rubsov o‘zining jamoaviy faoliyat sotsiogenezi nazariyasida ta’kidlaganidek, “bolaning intellektual rivojlanishi tayyor mahsulotni namoyish etishda emas, balki tengdoshlari bilan hamkorlikda muammoni hal qilish jarayonidagi kognitiv to‘qnashuvlarda sodir bo‘ladi”. Amaliyotdagi “ko‘rgazmali soxtalik” esa bolani jarayondan uzib qo‘yib, unda faqat hisobotbozlik va tayyor narsaga ega chiqish kabi salbiy ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirmoqda.

[2] Dewey J. “Democracy and Education”. New York: “Macmillan”, 1916. 76-page

Yana bir jiddiy muammo – tarbiyachining avtoritar diktati va andozaviy nusxalash muhitidir. Loyihaviy faoliyat deb berilayotgan darslarda ham bolalarga mustaqil mavzu yoki harakat strategiyasini tanlash huquqi berilmaydi. Tarbiyachi o‘zi taxta reja tuzadi, bolalarga qaysi rangdan foydalanish yoki cho‘pni qayerga yopishtirishni qat’iy buyruqlar orqali ko‘rsatadi. Natijada guruhdagi barcha bolalarning o‘quv loyihasi bir xil formatda chiqadi.

Psixolingvist J. Bruner o‘zining ta’limiy “havolalar” (scaffolding) konsepsiyasida o‘qituvchi bolaga tayyor yechimni bermasligi, balki uning mustaqil harakatlanishi uchun rag‘batlantiruvchi muhit yaratishi kerakligini isbotlagan edi. MTTlardagi amaldagi holat esa innovatsion nom bilan niqoblangan o‘sha eski an’anaviy reproduktiv tizimning o‘zi bo‘lib, bolada xato qilish va xatodan o‘rganish (empirik tajriba) imkoniyatini mutloq yo‘qqa chiqarmoqda.

Ushbu metodik inqirozdan chiqish hamda maktabgacha ta’lim pedagogikasiga yangilik kiritish maqsadida, tadqiqotimiz doirasida ota-onalarning aralashuvisiz, faqat bolaning kognitiv, amaliy va badiiy (Art) salohiyatini faollashtiruvchi “Avtonom bolalar eko-loyihasi” texnologiyasi ishlab chiqildi va amaliyotda sinovdan o‘tkazish taklifini ilgari surish mumkin.

Loyiha dars xonasida tarbiyachining buyruqlari bilan emas, bolalarning o‘zaro teng huquqli hamkorligida, qat’iy 3 bosqichli dinamik ssenariy asosida loyihalashtiriladi:

Tarbiyachi xonaga qurib qolgan o‘simlikni olib kiradi: “Bolalar, nima uchun bu gul nobud bo‘ldi? Guruhimizdagi boshqa o‘simliklarni qanday asrashimiz mumkin?”. Bolalar quruq ma’ruza tinglamaydi, muammoni erkin muhokama qilib, 4 kishilik mustaqil jamoalarga bo‘linishadi. Har bir jamoa ichida bolalarning o‘zlari rollarni taqsimlaydi: Tadqiqotchi (suv quyishni tekshiradi), Dizayner (tuvakni bezatadi), Metborist (quyosh nurini o‘lchaydi) va Taqdimotchi (yakunda gapirib beradi). Bu bolada ilk ijtimoiy mas’uliyatni uyg‘otadi.

Bolalar ota-onalarisiz, faqat o‘z guruhadoshlari bilan birga real loyihani (masalan, urug‘ ekish yoki tuproqni yumshatishni) bajarishadi. Ular har kuni suv miqdorini o‘lchashda o‘yinchoq tayoqchalardan (matematik o‘lchovdan) foydalanishadi. Agar bola urug‘ga haddan tashqari ko‘p suv quyib yuborsa va urug‘ chirib ketsa – tarbiyachi

uni urishmaydi. Bu loyihaviy xato bolaning shaxsiy empirik tajribasiga aylanadi: u sabab va oqibat zanjirini o‘z ko‘zi bilan ko‘radi va kognitiv tahlil qilishni o‘rganadi.

Mashg‘ulot yakunida har bir jamoaning Taqdimotchi rolidagi bolasi o‘z o‘simligini o‘rtaga olib chiqib, qog‘ozga ramzlar bilan chizilgan haftalik kundalik (mnemotexnik chizma) asosida nutq so‘zlaydi. Bu jarayon boladagi nutqiy tortinchoqlikni yo‘qotadi va maktab oldi bog‘lanishli nutq kompetensiyasini (didaktik imkoniyatni) yuzaga chiqaradi.

Loyihaviy faoliyatning 100 foiz hajmi faqat MTT hududida, mashg‘ulot soatlarida va bolaning o‘z qo‘llari bilan bajarilishi qonuniy me’yor qilib belgilanishi shart. Uyga hech qanday loyiha topshirig‘i berilmasligi lozim. Ko‘rgazmalarda maketning go‘zalligi emas, bolaning uni tushuntirib berish va himoya qilish qobiliyati bosh mezon qilib olinishi kerak.

Haftalik dars jadvalidagi tarqoq 20-30 daqiqalik darslarni haftada bir marta 60 daqiqalik yaxlit “Loyiha kuni” formatiga birlashtirish lozim. Bu vaqt tarbiyachiga fasilitator (tashqaridan kuzatuvchi va ko‘makchi) pozitsiyasiga o‘tishga va bolalarga real harakat erkinligini berishga imkon yaratadi.

Tarbiyachilar va metodistlarning malaka oshirish kurslari dasturiga bolalarni jamoaviy mikroguruhlarga to‘g‘ri ajratish, ularda mantiqiy muammoli vaziyatlarni shakllantirish va loyiha monitoringini raqamli diagnostika qilish modullarini chuqurlashtirilgan formatda kiritish davr talabidir. Tarbiyachi ta’limni shunchaki mexanik ijro etuvchi xodim emas, balki bolalardagi mustaqil tadqiqotchilik intellektini loyihalovchi erkin “didaktik dizayner” darajasiga ko‘tarilishi shart.

Ushbu tadqiqot doirasida asoslangan loyihaviy yondashuv bolaning lisoniy, mantiqiy va empirik ko‘nikmalarini bitta yaxlit zanjirga biriktirib, unda hayotiy kompetensiyalarning barvaqt poydevorini shakllantiradi. Bola o‘z tengdoshlari bilan hamkorlikda muammoli vaziyatlarni tahlil qila olgandagina unda haqiqiy dunyoqarash va tizimli muloqot madaniyati yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-sonli Qonuni. Toshkent, 2019-yil 16-dekabr.

2. “Ilm yo‘li” maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish hamda maktab ta’limiga tayyorlash davlat dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Toshkent, 2020. – 84 b.

3. Mavlonova R. A., Rahmonqulova N. H. Integratsiyalashgan ta’lim metodikasi. Toshkent: Ilm ziyo, 2013. 148 b.

4. Sodiqova Sh. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish. Maktabgacha ta’lim jurnali. Toshkent, 2021. № 1. – S. 12-19.

5. Dewey, J. (1916). Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. New York: Macmillan. 432 p.

6. Bruner, J. (1966). Toward a Theory of Instruction. Cambridge: Harvard University Press. 176 p.

7. Rubtsov, V. V. (1987). Organization and Development of Joint Actions in Children in the Process of Learning. Moscow: Pedagogika. 160 p.

8. Kilpatrick, W. H. (1918). The Project Method. Teachers College Record, 19(4), 319-335.